

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**MAMATOVA MUQADDAS KARIMBERDI QIZI**

**MALAKALI VOLEYBOLCHI QIZLARNI YILLIK TAYYORGARLIK  
MASHG‘ULOTLARIDA MUSOBAQALARGA TAYYORLASH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Mamatova Muqaddas Karimberdi qizi**

Malakali voleybolchi qizlarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida musobaqalarga tayyorlash .....3

**Маматова Муқаддас Каримберди кизи**

Подготовка квалифицированных волейболисток к соревнованиям в рамках годовых тренировок .....31

**Mamatova Mukaddas Karimberdi kizi**

Preparing qualified volleyball player girls for competitions in annual training sessions.....61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....65

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**MAMATOVA MUQADDAS KARIMBERDI QIZI**

**MALAKALI VOLEYBOLCHI QIZLARNI YILLIK TAYYORGARLIK  
MASHG‘ULOTLARIDA MUSOBAQALARGA TAYYORLASH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv  
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.Phd/Ped6750 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:** **To‘xtaboyev Nizomjon Tursunaliyevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** **Kochkarov Atabek Axmatvayevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**Xamidjonov Abdulaziz Usubjon o‘g‘li**  
pedagogika fanlari doktori (DSc)

**Yetakchi tashkilot:** **Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston**  
**Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti A bino 1-qavat 114-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**F.A.Kerimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**X.X.Qurbonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

**O.J.Dadabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda voleybol sport turida texnik-taktik usullarning murakkablashuvi, o'yindagi tezkor harakatlar, sakrashlar va raqibning xujumlarini to'siqlash kabi usullar voleybolni jozibali va ommalashgan sportga aylantirdi. Malakali voleybolchilarning ushbu murakkab texnikalar va taktikalarni takomillashtirish, ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish va raqobatbardosh ruhni shakllantirish muhimdir. Bu jarayonda malakali voleybolchi qizlarning tezkorlik reaksiyalari, koordinatsiya va chidamliligini barqarorlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Malakali voleybolchi qizlarni tayyorlashda texnik-taktik ko'nikmalarini oshirish va ularga o'yin jarayonida yuqori darajali qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratish, raqib xujumini bartaraf etish uchun to'siq qo'yish kabi murakkab texnik tayyorgarliklarni namoyish etishi ushbu sport turini ommalashtrishiga olib kelmoqda qolaversa, voleybol sport turini dunyo amaliyotiga joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida voleybol sport turiga tanlash saralash va tor ixtisoslikka yo'naltirish turli yosh guruhlariga mansub voleybolchilarni tayyorlash xususiyatlari, texnik va taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Voleybol sportining murakkabligi va shiddatli xarakteri, shuningdek, yuqori darajadagi musobaqalarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan malakalar, sportchilarni tayyorlash tizimining samaradorligini oshirishni talab qiladi. Ammo, sport maktablarida jismoniy tayyorgarligi turli-xil bo'lgan malakali voleybolchi qizlarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlik darajasini nazorat qilishga qaratilgan muammolarni yetarlicha o'rganilmaganligi, uning zaruriyatini keltirib chiqargan holda o'zining oqilona echimlarini kutmoqda.

Respublikamizda malakali voleybolchi qizlarning bugungi kunda yuqori darajadagi musobaqalarida muvaffaqiyatga erishish uchun jismoniy tayyorgarlik juda muhim rol o'ynaydi. Sportchilarning chidamliligi, tezligi, kuchi va reaksiya tezligi kabi omillar o'yinning natijasiga bevosita tasir qilishini hisobga olgan holda, malakali voleybolchi qizlarni tayyorlashda ularning jismoniy ish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan kompleks metodikalar ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi. Bu haqida hukumatimiz rahbari ham "Iqtidorli sportchilar, shu jumladan, sportchi-ayollarni aniqlash, seleksiya qilish hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning barcha bosqichlarini raqamlashtirish, shuningdek voleybol sport turlari bo'yicha o'quv dasturlarini yangilash, yoshlarning tayyorgarlik jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish"<sup>1</sup> masalalari bugungi kunda muxim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, o'z navbatida, sportchilarning tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish va maksimal samaradorlikka erishish imkonini beradi. Hozirgi kunda bu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar hali etarlicha to'liq natijalar bermagan, shuning uchun yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur. Malakali voleybolchi qizlarni tayyorlash jarayoni doimiy ravishda yangilanib,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ-274-son "Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. [www. Lex.uz](http://www.lex.uz).

optimallashtirilib borilishi kerak. Malakali voleybolchi qizlarni musobaqalarga tayyorlash jarayonida samaradorlikni oshirish uchun yangi metodikalar va trening usullarini joriy etish kerak. Ta'limning yangi sharoitlari, yuqori samara beruvchi mashg'ulot yuklamasi, kunning yangi rejimiga va turli-xil sharoitlarga adaptatsiya qilish, o'rganilayotgan mashg'ulotning yangiligi va murakkabligi, murabbiyning topshiriqlari va vazifalarini bajarish zarurati sportchi qizlar organizmiga yuqori talablarni qo'yimoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti metodikasini ishlab chiqish va amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan soha bo'yicha qabul qilingan bir qator Farmon va Qarorlar jumladan, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024 - yil 19- iyuldagi PQ-274 son "Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda sohaga aloqador boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan ustuvor vazifalar ijrosini taminlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirish: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlar doirasiga mos ravishda amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, respublikamizning bir qator olimlari M.R.Xaydarov, O.N.Madaminov, J.M.Shukurllayev, M.A.Imamov, K.M.Umarov, I.I.Mirzayevlar A.A.Pulatov, L.R.Ayrapetians, F.A.Kerimov, O.A.Ibragimova, A.J.Varaevlar tomonidan sportchilarni yillik mashg'ulotlarda musobaqalarga tayyorlash muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-tadqiqot natijalari alohida e'tiborga sazovor. Malakali voleybolchilarni yillik sikllarda musobaqalarga tayyorlash yo'nalishidagi muammolari bo'yicha Ye.A.Ibragimova, P.Yu.Malaeva, A.A.Ummatov<sup>2</sup> va boshqalar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida malakali voleybolchilarning

---

<sup>2</sup> Xaydarov M.R. "Yuqori malakali voleybolchilarni jamoaviy texnik xarakterlari" Science and innovation. 2022.- B.460-462; Madaminov O.N. "Sportchilarning sport musobaqalari va ularga tayyorgarlik rejalashtirish (volleybol misolida)" 2021.- B. 8-10.; Shukurllayev J.M. "Klaster yondashuv asosida voleybolchilarni musobaqalarga tayyorlash" 2020.B.1-4.; Imamov M.A., Umarov K.M., Mirzayev I.I., Tools and methods of training young volleyballers., Journal NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 6, 2020.- pp. 64-65; Ibragimova O.A., Varaeva A.J., Ibragimova E.A., Mالاалиева П.Ю., Техника и методика обучения волейболу. 2016.- С. 24-26.; Аyrapetyans.L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiati. Darslik-T: - 2012. -206 b.: Айрапетянц Л.Р. Волейбол учебник для высших учебных заведений. -Ташкент: 2006. -239 с.; Айрапетянц,Л.Р., Пулатов А.А. Voleybol nazariyasi va uslubiati. Darslik-T: - 2012. -206 b.: Kerimov F.A. Kurash nazariyasi va uslubiati. 2005.- 356 b; Ummatov A.A. Malakali voleybolchilar jismoniy ish qobiliyatini musobaqa sikllarida o'zgarishi va uni tiklash uslubiati. Fan sport №/6 2022.- B. 61-65.

yillik tayyorgarligi bo'yicha A.B.Belyaev, E.Yu.Nikitina, L.P.Sergienko, A.V.Ablikova, V.D.Borisov, L.V. Ayrapetians, Yopi Kusdinar, Amung Ma'mun, Agus Rusdiana, A.V.Suxanov, E.V.Fomin, V.N.Platonov, Yu.V.Verxoshanskiy, M.A.Godik<sup>3</sup> va boshqalar tomonidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy olimlardan T.Bompa, I.Tizana, G.Altivilla, R.Gaetano, C.Pittera, P.Pedata, Xelifi Monji<sup>4</sup> va boshqa olimlar tomonidan malakali sportchilar va voleybolchilarni yillik mashg'ulotlarini optimallashtirish shuningdek ularni musobaqalarga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu sababli bugungi voleybolda, ayniqsa yurtimiz voleybolchilarida jismoniy ish qobiliyatini o'rganish, uni yangi innovatsion modellar yordamida baholash va modellashtirilgan mashqlar asosida shakllantirish o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlardagi manbalarni tahlil qilish, sport maktablar sharoitida malakali voleybolchi qizlarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlari jarayonidagi muammosi, 16-17 yoshli malakali voleybolchi qizlarning mashg'ulotlar jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar tufayli, yuzaga keladigan toliqishni bartaraf qilishning samarali vositasi sifatida jismoniy faollikka mustahkam ehtiyojni shakllantirishni tajribalarda chuqur ishlab chiqilishini talab qilishini ko'rsatadi. Mazkur yosh guruhidagi malakali voleybolchi qizlarning ish qobiliyati ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning jismoniy qobiliyatlarini yanada takomillshtirish samarali vositalarini, shakllari va usullarini tajribalarda asoslash muhimdir.

Hozirgi vaqtda mashg'ulotlar tizimini, shu jumladan jismoniy tayyorgarlikni yanada takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri mashg'ulotlarga guruhli va individual yondashuvdir. Har bir sportchi qiz maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda shaxsiy yondashuvga muhtoj. Voleybolchi qizlarning texnik, taktik va jismoniy imkoniyatlarini yaxshilash uchun mahsg'ulot turi va vositalari individual xususiyatlariga moslashtiriladi. Bu, ayniqsa, murakkab va shiddatli o'yinda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali usullardan biriga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda yirik voleybol musobaqalarida malakali voleybolchi qizlarning ko'plab kamchiliklari ko'zga tashlanmoqda. O'quv jarayonini yanada optimallashtirish, voleybolchi qizlarning yillik mashg'ulotlar tizimini yanada samarali qilishga imkon yaratadi. Har bir sportchining jismoniy tayyorgarligini oshirishda, mashg'ulotlar tizimi ularning individualliklarini hisobga

---

<sup>3</sup> Беляев А.В., Совершенствование прыгучести волейболисток высокой квалификации посредством специализированных плиометрических тренировок// Ученые записки университета им. П. Ф. Лесгафта. – 2021. – № 5 (195). – С. 53–57.; Никитина Е.Ю., Сергиенко Л.П., Абликowa А.В., Методические основы развития скоростно-силовых качеств у волейболисток// Теория и практика физической культуры. –2020.–№9.–С.34–38.; Борисов В.Д., Влияние разных методов силовой тренировки на уровень прыжковых способностей волейболисток 18–20 лет// Вестник спортивной науки. – 2020. – № 2. – С. 45–49.; Айрапетянц Л.Р. “Волейбол” учебник для высших учебных заведений// Ташкент 2016-239 с.; Yopi Kusdinar, Amung Ma'mun, Agus Rusdiana “Prediction of Anthropometric Influence on the Volleyball Playing Skills” 2016. P.11-19.; Суханов А.В, Фомин Е.В, Булкина Л.В, Прыгучесть и прыжковая подготовка волейболистов / методическое пособие. М., т 2012.; Айрапетянц Л.Р., Пулатов А.А. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Darslik–Т: – 2012. –206 b.; Pittera C., Pedata P., Pasqualoni., Pallavolo dentro il movimento2. 2011.- 658 p.; Годик М.А. “Физическая подготовка футболистов” 2006. С. 36-39.;

<sup>4</sup>Tizana I., Altivilla G., Gaetano R., Teaching method in volleyball service: intensive and extensive tools in cognitive and ecological approach. 2017.- P. 22- 50.; Бомпа Т., Периодизация: теория и методология тренировки / пер. с англ. – М.: Terra-Спорт, 2010. – 432 с.; Xelifi Monji., Структура и содержание годичного цикла подготовки квалифицированных команд по волейболе. 1998.- С.15-21.

olishga asoslangan bo‘lishi kerak. Mashg‘ulotlarning turli bosqichlari va intensivligi har bir sportchining tayyorlik darajasiga mos ravishda asosiy vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Shuningdek, o‘quv jarayonida texnologik yondashuvlardan foydalanish, masalan, malakali voleybolchi qizlarning mashg‘ulotlari yanada optimallashtiradigan keng qamrovli texnologiyalarni joriy etish bugungi kundagi sport sharoitida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik usullari, tiklanish jarayonini tezlashtiruvchi metodikalar, zamonaviy sport texnologiyalarini (mobil ilovalar, elektron monitorlar, o‘lchov uskunalari, video tahlil) qo‘llash orqali sportchi qizlarning mashg‘ulotlari va musobaqalarga tayyorlik jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Bu usullar voleybolchi qizlarning jismoniy va funksional holatini yaxshilashga yordam beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining “Sport ta’lim muassasalarida seleksiya, saralash, bashorat qilish va oliy sport yutuqlarini rivojlanish monitoringini joriy qilish uchun raqamli texnologiyalarni yaratish” mavzusidagi ilmiy innovatsion grant loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** malakali voleybolchi qizlarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida jismoniy ish qobiliyatining ustuvor komponentlarini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish asosida musobaqalarga tayyorlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

malakali voleybolchilarni ish qobiliyatining jismoniy, texnik-taktik va funksional komponentlarini tayyorgarlik sikllarida yanada takomillashtirish orqali maxsus metodika ishlab chiqish;

malakali voleybolchilarning antropometrik, morfofunktsional va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqish;

malakali voleybolchi qizlarning biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, funksional rivojlantirish hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan mikrosikllarda yuklamalar hajmi va me‘yorini samarali boshqarish metodikasini ishlab chiqish;

malakali voleybolchi qizlarni musobaqalarga tayyorlashning musobaqaoldi va musobaqa mikrosikllarini, mashg‘ulotdan tashqari nazariy hamda amaliy o‘zlashtirish imkonini beruvchi mobil ilova ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Jizzax viloyati Zomin va Zarbdor tumanlari sport maktablari hamda Sirdaryo viloyati Xovos tumani 2-son sport maktabi 16-17 yoshli malakali voleybolchi qizlar mashg‘ulotlari jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** malakali voleybolchi qizlar mashg‘ulotlari, ularning jismoniy ish qobiliyati va uning tarkibiy komponentlarini takomillashtirish sur‘atini o‘stirishga va barqarorlashtirishga qaratilgan vosita va usullar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlili, pedagogik kuzatuvlar, anketa so‘rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, hamda matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

malakali voleybolchi qizlarning tayyorgarligini oshirish uchun jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini inobatga olib jismoniy sifatlariga ta'sir etuvchi maxsus mashqlar majmuasini (kardio, biceps, trips kabi) uchta metodik blokka umumiy, maxsus jismoniy tayyorgarlik hamda o'yin tayyorgarligini kombinatsion rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar dasturiga kiritish hisobiga yuklamalar me'yori optimallashtirilgan;

malakali voleybolchi qizlarning mashg'ulot jarayonini tadqiq qilish uchun ularning umumiy va maxsus jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan yillik mashg'ulot yuklamalar yo'nalishini qizlar organizmi fiziologik moslashish parametrlari bo'yicha aerob-anaerob, aerob-glikolitik va aerob-alaktat yo'nalishida makrosikl asosida ishlab chiqish hisobiga voleybolchi qizlarning tayyorgarlik jarayoniga berilayotgan yuklamani maqsadli boshqarish imkoniyatlari oshirilgan;

malakali voleybolchi qizlarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish uchun funksional holatini yaxshilash uchun ish qobilyatining beqaror va barqarorligi bo'yicha tabaqalashtirgan holda (menstural oldi, mensturasiya, postmenstural, ovulyatsiya, fazalarida) mashg'ulot yuklamalarni qo'llash hisobiga musobaqalardagi yuqori individual va jamoaviy potensialni ko'rsatish imkoniyatlari kengaytirilgan;

malakali voleybolchi qizlarni musobaqalarga samarali tayyorlash uchun musobaqa va musobaqaoldi mikrosikllarida jismoniy tayyorgarligi va funksional holatini yaxshilashga qaratilgan mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini oshirish imkonini beruvchi "Flyball" mobil ilovasini ishlab chiqish hisobiga sportchi qizlarning mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish imkoniyati kengaytirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

malakali voleybolchi qizlarda musobaqa faoliyatini xususiyatlarini tahlil etishda hamda malakali voleybolchi qizlarni texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishni qo'llash maqsadida amalga oshirilgan, ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan mashqlar va harakatli o'yinlar olib borilgan mashg'ulotlar komplekslarining tajribada aniqlangan yuqori samaradorligi ularning ustuvorligini ko'rsatgan, bu tajriba oxiridagi yillik tayyorgarlik mashg'ulotlari yakunidagi sakrash hamda tezlik-kuch sifatleri va ularning funksional qiymati ko'rsatkichlarining o'sib boruvchi dinamikasi bilan tasdiqlangan;

malakali voleybolchi qizlarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida yuzaga keladigan funksional holatini yaxshilashga hamda, qizlarning menstrual sikl davrini inobatga olib, mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan o'rtacha hajmdagi yuklamalar me'yori ishlab chiqish, qizlarning funksional holati va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi aniqlangan;

malakali voleybolchi qizlarning mashg'ulot jarayonini tadqiq qilish holatidan kelib chiqib, ularning umumiy-maxsus, texnik va taktik jismoniy tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan yillik mashg'ulotlar dasturi ishlab chiqish hisobiga malakali voleybolchi qizlarning musobaqa faoliyatini xususiyatlarini taxlil etishda

hamda malakali voleybolchi qizlarni texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan;

malakali voleybolchi qizlarni musobaqalarga tayyorlashning musobaqaoldi va musobaqa mikrosikllarini ishlab chiqish hamda samaradorligini pedagogik tajribada ilmiy asoslash hisobiga, jismoniy tayyorgarlik va funksional holatini yaxshilovchi hamda mashg‘ulotlarni nazariy va amaliy o‘zlashtirish imkonini beruvchi “Flyball” mobil dasturi ishlab chiqilgan va malakali voleybolchi qizlarning funksional holatini yaxshilash, har tomonlama jismoniy rivojlantirish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarini ishonchliligi.** Pedagogik tadqiqot natijalarining ishonchliligini aniqlashda mamlakatimiz hamda xorijiy davlatlar olimlarining fikr mulohazalariga asoslanganligi, usullar va nazariy materiallarning rasmiy manbalardan olinganligi, olib borilgan tajribalarning natijalari matematik-statistik tahlil metodlari yordamida ishlab chiqilganligi bilan asoslanib, kompyuter texnikasi yordamida olingan ma’lumotlar va natijalar qayta ishlab chiqilganligi hamda mazkur ishda berilgan xulosalar hamda ilmiy tavsiyalarning ishonchliligi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotlar davomida qo‘llanilgan an’anaviy testlar, pedagogik kuzatuvlar va voleybolchilarga xos ustuvor jismoniy sifatlar, jismoniy ish qobiliyati, ularga taalluqli komponentlar tarkibining ichki mohiyati, ularning shakllanish dinamikasining ilmiy nazariy xususiyatlari va amaliy uslubiy ahamiyatini ochib berishga imkon yaratganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, malakali voleybolchi qizlarning mashgulotlar jarayonida ularning texnik-taktik tayyorgarligini yaxlit birlashtirishga qaratilgan “mashg‘ulotlar metodikasi”ni joriy etilishi murabbiylarga qator ustunlikni taqdim etadi va musobaqalarda qo‘llash va g‘olib bo‘lish imkoniyatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Malakali voleybolchi qizlarning jismoniy va texnik – taktik tayyorgarligini yaxshilash natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

malakali voleybolchi qizlarning tayyorgarligini oshirish uchun jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini inobatga olib jismoniy sifatlariga ta’sir etuvchi maxsus mashqlar majmuasini uchta metodik blokka umumiy, maxsus jismoniy tayyorgarlik hamda o‘yin tayyorgarligini kombinatsion rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar dasturiga kiritish bo‘yicha taklif va tavsiyalar Jizzax viloyati, Zomin va Zarbdor tumanlari, Sirdaryo viloyati, Sardoba tumani, 2-son sport maktablari mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 19-avgust buyrug‘iga asosan 02-16/1503-sonli ma’lumotnoma). Natijada, malakali voleybolchi qizlarning umumiy jismoniy tayyorgarligi 13,6 % ga, maxsus jismoniy tayyorgarligi 12,4 %, ga yaxshilangan;

malakali voleybolchi qizlarning mashg‘ulot jarayonini tadqiq qilish uchun ularning umumiy va maxsus jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan yillik mashg‘ulot yuklamalar yo‘nalishini qizlar organizmi fiziologik

moslashish parametrlari bo'yicha aerob-anaerob, aerob-glikolitik va aerob-alaktat yo'nalishida makrosikl asosida ishlab chiqilib Jizzax viloyati Zomin va Zarbdor tumanlari Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 2-son sport maktablari mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 19-avgust buyrug'iga asosan 02-16/1503-sonli ma'lumotnoma). Natijada, malakali voleybolchi qizlarning mashg'ulotlarida berilgan metodikalardan foydalangan holda, ularning texnik tayyorgarligi 12,5 % ga, taktik tayyorgarligi 11,4 % ga yaxshilanishiga erishilgan;

malakali voleybolchi qizlarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish uchun funksional holatini yaxshilash hamda qizlarning ish qobiliyatining beqaror va barqarorligi bo'yicha tabaqalashtirgan holda (menstural oldi, mensturasiya postmenstural, ovulyatsiya, postovulyatsiya fazalarida) yuklamalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Jizzax viloyati, Zomin va Zarbdor tumanlari, Sirdaryo viloyati, Sardoba tumani, 2-son sport maktablari mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 19-avgust buyrug'iga asosan 02-16/1503-sonli ma'lumotnoma). Natijada, malakali voleybolchi qizlarning tezkor kuch sifati 11,8 % ga, chaqqonlik sifati 12,4 % ga oshgan;

malakali voleybolchi qizlarni musobaqalarga samarali tayyorlash uchun intensiv va musobaqaoldi mikrosikllarida jismoniy tayyorgarligi va funksional holatini yaxshilashga qaratilgan mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini oshirish imkonini beruvchi "Flyball" mobil texnologiyasi Jizzax viloyati Zomin va Zarbdor tumanlari Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 2-son sport maktablari mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 19-avgust buyrug'iga asosan 02-16/1503-sonli ma'lumotnoma). Natijada, malakali voleybolchi qizlarning jismoniy sifatlardan: sakrovchanlik ko'rsatkichlari 14,8 %, xujumda aniqlik 13,8 % yaxshilanishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, Jismoniy tarbiya sport ilmiy tadqiqotlari instituti va O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya sport universitetining "Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati" kafedrasida qo'shma yig'ilishida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish va to'rtta bobdan iborat bo'lib, 140 ta sahifali matn, 24 ta rasm, 15 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslab berilgan. Muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Voleybolchi qizlarni tayyorlashda yillik mashg‘ulotlarning tuzilishi, antropometrik ko‘rsatgichlarini ahamiyati va vosita ulullarini qo‘llanishi bo‘yicha adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida, 16-17 yoshli malakali voleybolchi qizlarning yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining asosiy mazmuni, qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi va funksional holatlarini nazorat qilishni amalga oshirishga yo‘naltirilgan innovatsion usullari bayon qilingan.

Mahalliy va xorijiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki malakali voleybolchi qizlarning mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishning umumiy asoslari, malakali voleybolchi qizlarning umumiy tayyorgarligi nazoratini tashkil etishda, yangicha ilmiy-nazariy yondashish dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etishda bir qator mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, L.R. Ayrapetyans, A.A.Pulatov, O.N.Madaminov, J.M.Shukurllayev, R.X.Bekmansurov, A.X.Mardanov, R.S.Salamov, E.V.Kudryashev, F.A.Kerimov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borib o‘zlarini darslik, o‘quv qo‘llanma, maqola va tezislarda malakali voleybolchi qizlarning yillik mashg‘ulotlarida nazorat qilishga qaratilgan yangi taklif hamda tavsiyalarni tizimli ishlab chiqishgan. Malakali voleybolchi qizlarning mashg‘ulot yillik jarayonlari takomillashuvi yuzasidan mahalliy masalalariga qaratilgan muammolar yuzasidan A.A.Ummatov, A.A.Boltayev, M.B.Ibragimov, A.A.Pulatov va boshqalar olib borgan tadqiqot natijalari alohida e‘tiborga sazovor.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi malakali voleybolchilarning yillik tayyorgarligi muammolari bo‘yicha M.A.Godik, L.P.Matveyev, V.N.Platonov, F.P.Suslov, O.S.Shalayev, V.L.Pavel, L.P.Sergienko va boshqalar tomonidan ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy olimlardan Gabbett va Georgieff, Lidor va Ziv, N.P.Garganeeva, V.V.Kalyuzhin, J.Res, J.Odea, Xelifi Monji va boshqa olimlar tomonidan malakali voleybolchilarning yillik mashg‘ulotlari tuzilishini sikllarda takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa so‘rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika uslubi, tadqiqotning tashkil qilinishida ularni qo‘llash uslubiyati va shartlari batafsil yoritilgan. Dissertatsiya ishini bajarish va tashkil qilish uchun foydalanilgan ilmiy

tadqiqot metodlari yoritilgan. Dissertatsiyaning tadqiqotlar quyidagi bosqichlarda o‘tkazildi.

I bosqich (2023) – mazkur mavzu bo‘yicha avval e’lon qilingan ishlarni batafsil tahlil qilib chiqish; hal etilmagan muammolarni aniqlash, ushbu tadqiqot mavzusini tanlash; tadqiqot maqsadi va vazifalarini qo‘yish; ushbu muammoni hal etish bo‘yicha real amaliyotni o‘rganish; jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida mavjud bo‘lgan hamda mazkur muammoni hal etishga yordam beruvchi chora-tadbirlarni o‘rganish; tadqiqot farazini shakllantirish.

II bosqich (2023-2024) – bir qator vazifalardan iborat: tajriba obyektlarini (16-17 yoshli malakali voleybolchi qizlarni jismoniy tayyorgarligi) aniqlash; tadqiqot o‘tkazishning zarur davomiyligini aniqlash, tajriba obyektining dastlabki holatini o‘rganish uchun aniq metodikalarni tanlash; metodikalar qulayligi va samaradorligini kam miqdordagi tekshiriluvchilarda sinab ko‘rish; tegishli pedagogik ta’sirlar oqibatida tajriba obyektidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida fikr yuritish mumkin bo‘lgan belgilarni aniqlash.

III bosqich (2024) – asosiy, ishlab chiqilgan metodika samaradorligini tekshirish bo‘yicha tajriba o‘tkazishga mo‘ljallangan. Bu bosqich quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:


- o‘tkaziladigan tizim doirasining dastlabki holatini (malakali voleybolchi qizlarning mashg‘ulot faoliyati va jismoniy tayyorgarligini) o‘rganish;
- tajriba o‘tkaziladigan shart-sharoitlarning dastlabki holatini o‘rganish;
- taklif etilgan chora-tadbirlar samaradorligi mezonlarini shakllantirish, tajriba qatnashchilariga uni samarali o‘tkazish tartibi va shartlari to‘g‘risida yo‘l-yo‘riqlar berish;
- vaqt, vositalar va say-harakatlarning joriy sarfini baholash.

IV bosqich (2024-2025)- yakunlovchi tajribaga yakun yasashga mo‘ljallangan:

- tajriba tadbirlari tizimini amalga oshirish natijalarini yoritish; tajribaga kerakli natijalarni bergan sharoitlarni tavsiflash;
- tajribaviy ta’sir subyektlarining (umumta’lim maktab boshlang‘ich sinf o‘qichilarining harakat faolligini) xususiyatlarini ta’riflash;
- tajriba davomida tekshirilgan tadbirlar tizimining qo‘llanilishi chegaralarini ko‘rsatish.


Dissertatsiyaning **“Malakali voleybolchi qizlarni jismoniy rivojlanganligi, tayyorgarlik darajasi, funksional texnik-taktik tayyorgarlik holati tuzilishi”** deb nomlangan uchinchi bobida, 16-17 yoshli malakali voleybolchi qizlarning mashg‘ulotlari jarayoni, funksional holati yani mashg‘ulot jarayonida menstrual davrida beriladigan yuklamalar optimallashtirish metodikasi va jismoniy tayyorgarlik darajasini o‘rganish natijalari, malakali voleybolchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish, Jizzax va Sirdaryo viloyatida belgilangan obyektda 16-17 yoshli malakali voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini o‘rganish natijalari, voleybolchi qizlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning metodikasi, voleybol mashg‘ulotlari bilan yanada takomillashtirilgan holatda shug‘ullanishlari uchun yangi innovatsion mobil ilovadan foydalanish mexanizmi haqida batafsil yoritilgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida malakali voleybolchi qizlarning mashg'ulotlardan maqsadli foydalanish hamda jismoniy rivojlantirish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish bugungi kunda eng asosiy o'rinda turuvchi masalalardan biri hisoblanadi. Malakali voleybolchi qizlarning jismoniy, texnik-taktik sifatlarni yanada rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Malakali voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi va harakatli o'yinlar**

Ushbu rasmda voleybolchi qizlarni jismoniy tayyorgarliklarini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar majmuasi ko'rsatib o'tilgan. Bunda barcha jismoniy sifatlarni, sakrovchanlik qobiliyati va xarakatli o'yinlar joy olgan. Mashg'ulot jarayonini to'g'ri tashkil qilish sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiradi, sport natijalarini yaxshilaydi va umumiy salomatlikni yaxshilaydi. Maqsadlarni aniq belgilash, rejalashtirish, individual yondashuv, tiklanish, motivatsiya va yangi texnologiyalarni qo'llash mashg'ulot jarayonini samarali tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Malakali voleybolchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan harakatli o'yinlar**

Harakatli o‘yinlar sportchilarning mashg‘ulotlarida juda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat jismoniy tayyorgarlikni yaxshilashga, balki ruhiy va emotsional jihatlarni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Quyida harakatli o‘yinlarning ahamiyatini sanab o‘tamiz: Harakatli o‘yinlar yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi va chidamlilikni oshiradi. Masalan, tez-tez sakrash yoki yugurish orqali yurak tez-tez urishi va qon aylanishi yaxshilanadi. To‘p bilan o‘ynash yoki tezkor harakatlarni bajarish muvofiqlik va reaksiya vaqtini yaxshilaydi. Bu o‘yinlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad: xarakatli o‘yinlar yordamida malakali voleybolchi qizlarimizni doimiy bir xil mashg‘ulotlardan chetlashgan xolda ularning umumiy jismoniy sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan. Yuqorida keltirilgan barcha harakatli o‘yinlar tizimlashtirilgan holatda, biz ishlab chiqqan “Flyball” mobil ilovasiga nazariy hamda video qo‘llanma shaklida kiritilgan. Doimiy yuklamalar sportchini mashg‘ulotdan zeriktirib, ulardagi qiziqishni susaytirishi xech birimizga sir emas. Shu sabali biz bergan o‘yinlar ularni doimiy bir xillikdan chetlashgan xolda ularning umumiy jismoniy sifatlarini yaxshilashga qaratilgan. Bundan tashqari sportchilarda faol dam olish xolatini yuzaga keltiradi.

16-17 yoshli malakali voleybolchi qizlar uchun ishlab chiqilgan xaftalik optimallashtirilgan mikrosikllar. Bu tayyorgarlik dasturi voleybolchi qizlarning umumiy jismoniy holatini yaxshilashga, maxsus sport texnikasini takomillashtirishga va o‘yin davomida yuqori samaradorlikni saqlashga yordam beradi. Albatta bu jarayonda har bir mashq va usullar sportchi organizmi uchun muxim ahamiyatga ega. Biz taklif qilayotgan haftalik mikrosikllardan foydalanish, olib boriladigan mashg‘ulotlar malakali voleybolchi qizlarning jismoniy, texnik va taktik sifatlarini yanada o‘stirishda bir qator imkoniyatlar va qulayliklar yaratadi (1-jadvalga qarang).

*1-jadval*


### **Malakali voleybolchi qizlarning oylik mashg‘ulotlar rejasi**

T/r	1-mikrosikl. 1-kun.1-mashg‘ulot		
<b>Musobaqaoldi</b>	<b>Mashg‘ulot kunlari</b>	<b>Me‘yori</b>	<b>Metodik tavsiya</b>
	Qizdirish mashqlari har xil tezlikda yugurish	20-daqiqa	Yugurish davomida gavdani tik holatda bo‘lishi lozim.
	Umumiy jismoniy mashqlar (sport rezinasi bilan)	30-daqiqa	Turgan holatda qo‘l mushaklari uchun va oyoq mushaklari uchun ishlanadi.
	Turli xil sakrash mashqlari	55-60 daqiqa	Mashqni bajarish jarayonida maksimal balandlikka sakrash va maxsus chidamkorlikni takomillashtirish kerak.
	<b>2-mashg‘ulot</b>		
	Qizdirish mashqlari har hil tezlikda yugurish	15-daqiqa	Yugurish davomida gavdani tik holatda bo‘lishi lozim.
	Darsning tayyorgarlik qismida umumiy privojlantirish mashqlari	15-daqiqa	Mashqlarni bajarish davomida darsning asosiy qismiga, har bir tana a‘zosini tayyorlash va qizishga e‘tibor qaratish lozim.
	Turli sakrash mashqlari	5-7 daqiqa	Mashqni bajarish jarayonida maksimal balandlikka sakrash kerak bo‘ladi.

To'pni yuqoridan pastdan juftlikda uzatish (juftlikda)	7 daqiqa	Mashg'ulot jarayonida joyda harakatlanib turish kerak.
Himoyada o'ynash (juftlikda)	10 daqiqa	Hujumchi uzatgan har bir to'pni aniqlik bilan qabul qilib o'ziga qaytarishi kerak.
To'pni qabul qilish	15-daqiqa	Hujumchi jamoa kiritgan har bir to'pni aniqlik bilan qabul qilib bog'lovchiga etkazib berish kerak.
Hujum zarbalari turli yo'llar bilan barcha zonalardan	20 daqiqa	Maydondagi har bir zonadan hujum zarbalarini amalga oshirish kerak bo'ladi.
Blokka qarshi hujum zarbalari	20 daqiqa	Raqib jamoa qo'ygan to'siqqa hujum qilib to'pni raqib jamoa maydoniga tushirish kerak bo'ladi.
Hujum zarbalariga qarshi blok qo'yish	20 daqiqa	Raqib tomonidan qilinayotgan hujumga blok qo'yish.

***Izoh:*** Voleybolchi qizlarning oylik mashg'ulotlar rejasi

Ushbu 1-jadvalda voleybolchi qizlarning bir oylik mashg'ulotlari rejasi keltirilgan bo'lib, kunlik ikkita mashg'ulotlardan tashkil topgan. Kunduzgi mashg'ulot asosan qizlarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan bo'lsa, kechki mashg'ulotlar ularning maxsus jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan mashqlar mashmuasidan iborat. Ushbu mashg'ulotlar mazmunan biz tomonimizdan klassifikatsiya qilingan mashqlar majmuasi bilan rejalashtirildi. Bundan tashqari mashg'ulotlardan so'ng harakatli o'yinlar va sport o'yinlarining ba'zi turlari joy olgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yuklamalarni maqsadli boshqarish hisobiga, voleybolchi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini yaxshilash hamda ularda faol dam olish holatini yuzaga keltirishdir.



**3 -rasm. Malakali volebolchi qizlarni yillik musobaqalarga tayyorgarlik rejasi**

**Izoh:** 1- kuch, egiluvchanlik, kordinatsiya, va chidamkorlikni rivojlantirish; 2- sprint (alaktat-anaerob); 3- anaerob glikolitik; 4- aralash (aerob-anaerob); 5- anaerob (mashq qiluchi); 6- aerob (tiklovchi); 7- faol dam olish; Mezosikillar: T- tortuvchi, B- bazaviy, NT- nazorat tayyorgarligi, MO- musobaqa oldi, M- musobaqa, F- faol dam olish. Makrosikillar: I- bazaviy va musobaqa, II- Nazorat tayyorgarligi va musobaqa oldi.

